



ANALYSIS OF THE PRACTICE OF IMPLEMENTING ISLAMIC BANKING IN UZBEKISTAN BASED ON THE EXPERIENCE OF FOREIGN ISLAMIC BANKS

Sa'dullayeva Gulnoza Usmonovna

Tashkent State University of Economics,
Teacher of the Department of "International Finance"
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15827063>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2025

Accepted: 04th July 2025

Online: 05th July 2025

KEYWORDS

Islamic finance, Islamic banking, Al Rajhi Bank, Sharia principles, interest-free finance, financial stability, risk sharing, alternative finance, takaful, sukuk, mudarabah, musharaka, Islamic microfinance, Sharia-compliant finance, financial inclusion.

ABSTRACT

This article analyzes the possibilities and practical mechanisms for introducing Islamic banking in Uzbekistan based on the experience of foreign Islamic banks, in particular, the Al Rajhi Islamic Bank of Saudi Arabia. The Islamic financial system, especially Islamic banking, plays an important role in reducing financial risks and ensuring economic stability with its principles of renunciation of interest (riba), fair distribution of profits and losses, and compliance with Sharia rules. The study analyzes the main financial services, institutional structure, banking products, and Sharia-compliant services provided to the population through Al Rajhi Bank. It is also substantiated that, as a result of the application of this experience in the conditions of Uzbekistan, the introduction of Islamic banking as an alternative to traditional banks in the financial market of Uzbekistan can be an important factor in increasing public confidence and expanding financial inclusion.

АНАЛИЗ ПРАКТИКИ ВНЕДРЕНИЯ ИСЛАМСКОГО БАНКА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ОПЫТА ЗАРУБЕЖНЫХ ИСЛАМСКИХ БАНКОВ

Саъдуллаева Гулноза Усмоновна

Ташкентский государственный экономический университет,
Преподаватель кафедры «Международные финансы»
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15827063>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2025

Accepted: 04th July 2025

Online: 05th July 2025

ABSTRACT

В данной статье анализируются возможности и практические механизмы внедрения исламского банкинга в Узбекистане на основе опыта зарубежных исламских банков, в частности, Al Rajhi Islamic Bank Саудовской Аравии. Исламская финансовая система, в особенности исламский банкинг, играет важную роль в снижении финансовых рисков и обеспечении экономической стабильности благодаря своим принципам отказа от процентов (риба), справедливого распределения прибылей и убытков, соблюдения норм шариата. В исследовании анализируются основные финансовые услуги, институциональная структура, банковские продукты и соответствующие шариату услуги,



KEYWORDS

Исламское
финансирование,
исламский банкинг,
банк Al Rajhi, принципы
шариата,
беспроцентное
финансирование,
финансовая
стабильность,
распределение рисков,
альтернативное
финансирование,
такафул, сукук,
мудараба, мушарака,
исламское
микрофинансирование,
финансирование,
соответствующее
шариату, финансовая
инклюзивность.

предоставляемые населению через Al Rajhi Bank. Также обосновывается, что в результате применения данного опыта в условиях Узбекистана внедрение исламского банкинга как альтернативы традиционным банкам на финансовом рынке Узбекистана может стать важным фактором повышения доверия населения и расширения финансовой инклюзивности.

XORIJYI ISLOM BANKI TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISH AMALIYOTI TAHLILI

Sa'dullayeva Gulnoza Usmonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Xalqaro moliya" kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15827063>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2025

Accepted: 04th July 2025

Online: 05th July 2025

KEYWORDS

Islom moliyasi, islom
bankchiligi, Al Rajhi
banki, shariat tamoyillari,
foizsiz moliya, moliyaviy
barqarorlik, risklarni
taqsimlash, muqobil
moliya, takafful, suquq,
mudoraba, mushoraka,
islomiy mikromoliya,
shariatga muvofiq
moliya, moliyaviy
inklyuziya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada xorijiy islomiy banklar, xususan, Saudiya Arabistonining "Al Rajhi" islom banki tajribasi asosida O'zbekistonda islom bankchilagini joriy etish imkoniyatlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Islom moliya tizimi, ayniqsa islom bankchiligi, foiz (ribo)dan voz kechish, foyda va zararni adolatli taqsimlash, shariat qoidalariga rioya qilish kabi tamoyillari bilan moliyaviy risklarni kamaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda Al Rajhi bankining asosiy moliyaviy xizmatlari, institutsional tuzilmasi, bank mahsulotlari va ular orqali aholiga taqdim etilayotgan shariatga mos xizmatlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu tajribaning O'zbekiston sharoitida qo'llanishi natijasida, islom bankchiligi O'zbekiston moliya bozorida an'anaviy banklarga muqobil sifatida joriy etilishi aholi ishonchini oshirish va moliyaviy inkluzivlikni kengaytirishda muhim omil bo'lishi mumkinligi asoslab berilgan.



Kirish.

Islom moliyasi dunyo bo'yicha barqaror o'sib borayotgan yo'nalish bo'lib o'z ichiga: islom bankchiliga, islom qimmatli qog'ozlari(suquq), islom sug'urtasi (takafful), islom fondlari va boshqa islomiy moliya institutlarni o'z ichiga oladi. Islom bankchiligi eng rivojlangan islom moliyasi segmenti hisoblanib, O'rta Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida yaxshi rivojlangan. Saudiya Arabistonining "Al-Rajhi" Islom banki dunyo bo'yicha eng yaxshi rivojlangan va kapital aylanmasi katta bo'lgan bank bo'lib, quyida aynan shu bank misolida mamlakatimiz islom bankchiligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Globallashuv sharoitida barqaror iqtisodiyotga erishish uchun xalqaro va O'zbekiston islom moliyasining joriy etish va u bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalar, uning zamonaviy tendensiyalari, islom moliyasining joriy etishdagi muammolar va kamchiliklar, ularni bartaraf etishdagi samarali yo'llar va o'ziga xos xususiyatlari sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik va yurtimiz tadqiqotchi olimlarning ishlari ma'lum darajada o'rganilgan. Jumlada, islom moliyasi tizimi va uning tashkil topish asoslari xorijlik iqtisodchi olimlardan R.F. Bekkin [1], V.V. Pavlov [2], E. Baydauletov [3], Muhammad Ayub [4] kabilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan esa, A.Vahobov, U. Burxanov, N. Jumayev [11], N. X. Erjigitov [12], D.K. Abdurahimova, D.F. Muxitdinova [13], F. Xudoynazarov [14] hamda G.Abduvosidova [15] kabilarning ilmiy ishlarida islom moliyasi faoliyatining ayrim masalalari tadqiq qilingan.


Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom moliyasi nafaqat musulmon bo'lgan davlatlar, balki musulmon bo'lmagan davlatlar (Buyuk Britaniya, Italiya)da ham rivojlanib iqtisodiyotga sezilarli darajada ijobiy ta'sir qilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston, Qozog'iston kabi iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda islom moliyasi, islom bankchiligini rivojlantirish moliyaviy risklilik darajasi past bo'lganligi uchun yaxshi hisoblanadi.

Global islom moliya bozori 3,98 trillion AQSh dollariga teng bo'lgan 2022-yil, 2027-yilga borib esa, 5,6 trillion AQSh dollariga teng deb taxmin qilingan. O'tgan asrda hali yaxshi rivojlanmagan islom moliyasi oxirgi 10 yil ichida qasholikni kamytirish, mamlakat yashash farovonligini oshirish, iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qildi. Foyda va zararni to'g'ri taqsimlashnishi orqali xatto 2008-yil global iqtisodiy inqirozda va COVID-19 pandemiyasi davrida deyarli zararsiz o'tti. Aynan shu sabab ham ko'plab musulmon bo'lmagan mamlakatlar ham islom moliyasiga o'z qiziqishini uyg'otdi. Hozirda 136 ta davlatda 1679 ta islom moliya institutlari mavjud bo'lib, dunyo bo'yicha islom moliya kapitali 17 foizga 2021-yildan 2022-yilga nisbatan oshgan. Yetakchi mamlakatlar bo'lib, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Eron kiradi (1-rasm).




1-rasm. Islom moliyasidagi kapitalning mamlakatlar kesimidagi ulushi (2022-yil, milliard AQSh dollarda) [11]

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rsak bo'ladiki, islom moliyasining deyarlik 4 dan 1 qism kapitali Eron davlatiga tegishli bo'lib, Saudiya Arabiston, Malayziya ikkinchi va uchinchi o'rinda (606 va 262 milliard AQSh dollari).

Islom bankchiligi islom moliyasida eng ko'p qo'llaniladigan va eng katta kapital aylanmaga ega sektor hisoblanadi. Islom bankchiligining shariat qonun qoidalariga asoslangan bank faoliyat. Islom bankchiligida foyda va zarar adolatli taqsimlanadi va foiz stavkasi bo'yicha kreditlar ajratmaydi va omonatga pul qabul qilmaydi. Aynan shular ananaviy banklardan asosiy farqlari hisoblanadi. Ananaviy bank tomonidan berilgan pul qaytarilinayotganida albatta ma'lum bir miqdorda foiz stavkasi bilan qaytarilinadi.

Dunyo bo'yicha umumiy kapital islom bankchiligida 2,765 trillion dollarga teng bo'lib, islom moliyasining 70 foizni tashkil etadi va 566 ta islom moliya banklariga ega. Quyida 2.2.2-ramda 4 xil islom banklari ko'rsatilgan. Son jihatdan eng ko'p tijorat banki hisoblanib, 456 taga 2022-yil yetibdi. Islomiy investitsiya banki esa, 64 ta bo'lib, ulgurchi va ixtisoslashgan banklarning soni deyarlik bir xil 25 va 21 tadan to'g'ri kelayapti.



2-rasm. Banklar turlari [6]



Islom tijorat banklari asosan aholi bilan ishlagani uchun son jihatdan ko'pdir. Buning asosiy sababi, Islom bankchiligining barcha xizmatlari shariat qonun qoidalariga asosan ish tutushidadir va foyda va zararni ham bank ham mijoz teng taqsimlashidadir. Mudoraba, mushoraka, ijara va vadia islom bankchiligida keng qo'llaniladigan moliya instrumentlaridir. Shu sababdan, eng rivojlangan islom banki misolida, uning tajribalari, xizmatlari, moliya bozoridagi o'rnini ko'rib chiqib, mamlakatimiz moliya bozoriga olib kirish yo'llarini sanab o'tamiz. Islom bankchiligini mamlakatimizda mavjud bo'lgan an'anaviy banklarga muqobil variant sifatida rivojlantirishimiz, aholi uchun turli moliya mahsulotlarini taklif qilishimiz eng ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Eng rivojlangan islom banklari Yaqin Sharqda, asosan, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab amirligi, Qatarda joylashgan bo'lib, quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Eng rivojlangan islom banklari reytingi (million AQSh dollarda) [11]

No	Bank nomi	Mamlakat	Kapital	Sof daromadi
1.	Al Rajhi Bank	Saudiya Arabiston	97.298	12.943
2.	Dubai Islamic Bank	BAA	60.899	8.566
3.	Kuwait Finance House	Quvayt	58.515	6.236
4.	Maybank Islamic	Malaysiya	54.459	2.534
5.	Qatar Islamic Bank	Qatar	42.088	5.334
6.	Abu Dhabi Islamic Bank	BAA	34.085	4.826
7.	Alinma Bank	Saudiya Arabiston	32.398	5.677
8.	Parsian Bank	Eron	31.024	394
9.	Masraf Al Rayan	Qatar	26.723	3.647
10.	Bank Rakyat	Malaysiya	25.846	4.322

Saudiya Arabistoni. Birlashgan Araba Amirligi va Quvayt islom banklari ham kapital, ham sof daromadi bo'yicha kuchli 3 ta bankka ega mamlakatlar hisoblanib, Malayziya, Qatar, Eron mamlakatlaridagi banklar top 10 ta kapitali ko'p bo'lgan islom banklari ekan. 97 milliard 298 million AQSh dollarlik kapitalga ega bo'lgan Al-Rajhi banki eng yirik banklardan hisoblanadi. Al-Rajhi banki umumiy ma'lumotlari va bank ko'rsatadigan xizmatlarini qisqacha yoritib berish [10].

1957-yilda tashkil topilgan Al-Rajhi banki Yaqin Sharq va Saudiya Arabistonidagi eng yirik islom banki hisoblanib, umumiy aktivlari 710 mlrd Saudiya Arabistoni riyoli (SAR deb o'qilsin) va ularning soni 9300 tadan ko'pdir. Bank va savdo faoliyatida 60 yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan Al Rajhi nomidagi turli xil individual muassasalar 1978-yilda Al Rajhi trading and exchange corporation birlashadi va 1988-yilda bank "Saudiya Arabistoni aktsiyadorlik jamiyati" sifatida tashkil etildi. Keyinchalik esa, 2006-yilda "Al Rajhi bank" deb nomlandi. Islomiy bank tamoyillariga chuqur ildiz otgan, shariatga mos keladigan bank guruhi zamonaviy moliyaviy talablar va shariatning ichki qadriyatlarini o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi, shu bilan birga ko'plab sanoat standartlari va rivojlanishiga rahbarlik qiladi [9].



Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida tashkil etilgan bazasi bilan Al Rajhi bank 515 dan ortiq filiallari, 4 824 dan ortiq bankomatlari, savdogarlar bilan o'rnatilgan 547 507 POS-terminallari va 205 pul o'tkazma markazlaridan tashqari, Qirollikdagi istalgan bankning eng yirik mijozlar bazasiga egadir [8].

Bank o'z missiyasini quyidagicha ta'riflaydi: Mahalliy va xalqaro miqyosda o'zining innovatsion xizmatlari, odamlari, texnologiyasi va shariatga muvofiq mahsulotlari bilan hayratga tushgan eng muvaffaqiyatli bank bo'lish. Al-Rajhi banki Direktorlar Kengashiga ega va Bank Direktorlar Kengashi har uch yilda bir marta Bosh Assambleya tomonidan saylanadigan a'zolar yig'indisini ifodalaydi. A'zolar Kapital bozori organining korporativ boshqaruv qoidalarida ko'rsatilgan ta'riflarga muvofiq tasniflanadi. Bundan tashqari Shariat guruhi mavjud bo'lib, Al Rajhi operatsiyalarining asosiy ustuni hisoblanadi. Guruh yetakchi islom banki bo'lish maqsadini amalga oshirish uchun birgalikda ishlaydigan bir qator integratsiyalashgan bo'limlardan iborat. Ushbu maqsadga barcha Al Rajhi bank operatsiyalari shariat qonunlari tamoyillariga mos kelishini ta'minlaydigan zarur rejalar va siyosatlarni kiritish orqali erishiladi.

Islom banklarida jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan asosiy xizmatlar va ularning tavsifi:

- Hassad hisob varag'i - bu mudorabaga asoslangan omonat hisobvarag'idir. Bu islom shiati qoidalariga mos keladi, bunda bank mijozga ushbu hisobvaraقدan pul yechib olish va omonatga qo'yish hamda boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish shartlariga muvofiq amalga oshirishda moslashuvchanlik imkonini beradi. Avzalliklari shundaki, hisobvaraq Al Rajhi bank ilovasi orqali ochiladi, hisobvaraqni ochish va yopish to'lovlari yo'q, har oy dividendlar shariat qonun qoidalariga mos ravishda taqsimlanadi. Kutilayotgan foyda stavkasi quyidagicha: 10000 SAR- 299999 SAR oralig'idagi pul mablag'lari uchun yiliga 2.40 foiz, 300000 SAR- 999999 SAR oralig'idagi pul mablag'lari uchun yiliga 2.75 foiz, 1000 000 SAR va undan yuqori pul mablag'lari uchun yiliga 3.00 foiz. Yillik ekvivalent stavka yuqoridagi misollardagi turli vaqt davrlariga qarab farq qilishi mumkin va qaytishi qat'iy emas va o'zgarishi mumkin. Bu haqda bankning elektron kanallari orqali mijozlarga vaqti-vaqti bilan e'lon qilinadi,

- Kelajakdagi hisob varag'i - islom shariatiga muvofiq jamg'arma rejasi bo'lib, mijozning joriy hisobvarag'idan avtomatik ravishda oylik summani o'rnatadi va tizim jamg'arma muddatidan kelib chiqib kutilayotgan foydani hisoblab chiqadi. Al Rajhi bank ilovasi orqali ochilib, avtomatik tarzda necha summa qaysi vaqtgacha ochilishi belgilanadi. Shu orqali oylik va yillik qo'shib borilnadigan pul hisoblab chiqiladi. Ilova orqali ochilgan hisob varaqqa mukofaa, ya'ni mukofot beriladi 1000 ball. Bu ballarning yig'indisini ma'lum bir xizmat uchun ishlatilinsa bo'ladi. Masalan, 12 oy uchun hisob varaq ochilsa, oyiga 1500 SAR ni avtomatik tarzda yechiladi va yillik ekvivalent stavkasi 2.03 foizdan bo'ladi. Kutilayotgan foyda oxirgi muddatta 197 SARga teng bo'ladi. Yillik ekvivalent stavka fikserlanmagan bo'lib, o'zgarishi ham mumkin. O'zgarishlar bankning saytida ko'rsatiladi.

- Mukofaa ballari - bank xizmatlari va maxsulotlarini sotib olishdan beriladigan ballar hisoblanadi. Mukofaa ballari orqali mijoz bankning hamkor kompaniyalarining tovar va xizmatlarni foydalanishi mumkin. Restoran, dorixona, sayohatlar, haridlar, mehmonxonalar va ko'plab vaucherlar orqali mukofaa ballarini ishlatga bo'ladi.

- Avtomobil lizingi - mijozlarga avtomobillarni shariat asosida lizing asosida sotib olish imkonini beradi. Birlamchi va ikkilamchi bozordagi mashinalarni xarid qilsa bo'ladi. Lizing obyektini boshqa mijozga o'tkazish mumkin. Al Rajhi ilovasi orqali avtomobil olishni



rejalashtirgan mijozlarga 50 000 mukofaa bali ham beriladi. Agar mijoz vafot etsa yoki nogiron bo'lib qolsa, lizingi to'lashdan ozod etiladi. Agar mijoz maoshidan to'g'ridan to'g'ri lizing to'lovini otkazsa lizingga beriladigan summasi nisbatan kam bo'ladi. Chunki, maoshidan to'g'ridan to'g'ri pul o'tkazadigan mijozlarning yillik stavkasi 7.04 foiz bo'lsa, maoshidan o'tkazmaydigan mijozlar uchun foiz 7.97 foiz. Daromadi 1900 SAR dan boshlanishi lozim va bank o'z xizmatini 1 oy ichida ko'rsatadi [11].

-Takafful (sug'urta) - takaffulning omonat va himoy dasturi o'z mablag'larini omonatta saqlash va investitsiya qilish chuniladi. Oyiga 300 SAR dan boshlanadigan takafful sug'urtasi uzoq muddatli investitsiya hisoblanadi va agar mijoz vafot etsa yoki nogironlik holatiga tushib qolsa, kompaniya kelishilga himoya miqdorini yoki investitsiya miqdorini to'laydi. Mijoz vafot etsa, shariat qonun qoidalariga asosan uning merosxo'rlari kompaniyadan badal oladi. Kamida 10 yil muddatga shartnoma kelishiladi.

Yuqorida keltirilgan xizmatlardan tashqari bank mijozlarga tadbirkorlikni rivojlantirish uchun islomiy moliya shartnomasi tuzadi, tadbirkorlar uchun alohida takafful shartnomalarni taklif qiladi va savdo jarayonida halol kompaniyalar va mijozlar o'rtasida brokerlik xizmatlarini ham olib boradi. Bundan tashqari Al Rajhi bankining boshqa davlatlarda ham filiallari mavjud. Masalan, Al Rajhi Iordaniya, Al Rajhi Quvayt, Al Rajhi Malayziya, Tahweel Al Rajhi. Har bir mamlakatdagi bank o'z mamlakatining qonun qoidalarini va iqtisodiga asosan islomiy bank xizmatlarini taklif qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bank sektoriga islomiy moliyalashtirish infratuzilmasini rivojlantirish doirasida Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasining maslahat yordamini jalb qilish belgilangan. Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-maydagi "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish masalalariga urg'u berilgan.

Yuqoridagi qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida 2019-yil 22-avgust kuni "Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki va Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasi o'rtasida "Maslahat yordami to'g'risida"gi shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, bank tizimiga "Islom darchasi" xizmatlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, hamkorlik va shariat shartlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga xizmat qiladi [5].

Xulosa va takliflar.

Islom moliyasi, ayniqsa islom bankchiligi, hozirgi kunda jahon moliya tizimida barqaror o'sib borayotgan va tobora kengayib borayotgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu tizim shariat qonun-qoidalarini asosida faoliyat yuritib, adolat, halollik, risklarni teng taqsimlash, foyda va zararni sheriklik tamoyiliga asoslanadi. Aynan ana shu jihatlar uni global moliyaviy inqirozlar va pandemiyalarga bardoshli tizim sifatida ajratib turadi. Islom banklari odatiy banklardan farqli o'laroq, foiz (ribo) asosida operatsiyalarni amalga oshirmaydi, bu esa musulmon jamoalar orasida katta ishonch va barqarorlikni ta'minlaydi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dunyodagi eng yirik islomiy moliya institutlaridan biri bo'lgan Saudiya Arabistonidagi Al Rajhi banki o'zining shariatga asoslangan innovatsion xizmatlari, keng tarmoqli infratuzilmasi va mijozlarga taklif qilinayotgan mahsulotlarning xilma-xilligi bilan islom moliyasining rivojlanishida ilg'or o'rinda turadi. Bank tomonidan taqdim etilayotgan Hassad hisob varag'i, kelajak jamg'arma tizimi, takafful sug'urtasi, avtomobil lizingi kabi xizmatlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida islom bankchiligini rivojlantirish istiqbollari yuqori baholanmoqda. Chunki mamlakatda aholining aksariyati musulmonlar bo'lib, foizdan holi moliyaviy xizmatlarga talab mavjud. Shu sababli, Al Rajhi banki kabi ilg'or islom banklari tajribasidan foydalanib, O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish va mavjud banklar tarkibida shariatga muvofiq bo'linmalar yaratish, islom moliyasi bozorini rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu esa, bir tomondan, moliya tizimida raqobatni oshiradi, ikkinchi tomondan, aholining ehtiyojlariga muvofiq xizmatlarni kengaytirishga imkon yaratadi.

References:

1. Bekkin R. F. Musulmon va nomusulmon mamlakatlarda islomiy moliyaviy muassasalar va instrumentlar: xususiyati va rivojlanish istiqbollari: iqt. fan. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disser-ya. – Moskva: Rossiya Fanlar akademiyasi Afrika instituti, 2019.
2. Pavlov V.V. Islomiy bank kapitali xalqaro bozori: paydo bo'lishi va rivojlanish istiqbollari. Iqt. fan. doktori ilmiy darajasini olish uchun disser-ya. – Moskva: RFA Afrika instituti ijtimoiy fanlar bo'limi, 2021
3. Baydauletov E. "Islom moliya asoslari" H. Hasanov yahriri ostida. Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti 2019-yil.
4. Muhammad Ayub "Understanding Islamic Finance", John Wiley & Sons Ltd., 2022
5. New York: United Nations Capital Development Fund; Khan, A. A. (2008). Islamic Microfinance;
6. "Microfinance is dead! Long live microfinance. Critical reflections on two decades of microfinance policy and practice". Published in Centre for Development Studies, University of Bath, UK;
7. Halima Begum, Ferdous Alam, Aslam Mia, Faruk Bhuiyan, Ahmad Bashawir Abdul Ghani, (2018) "Development of Islamic microfinance: a sustainable poverty reduction approach", Journal of Economic and Administrative Sciences;
8. Ines Ben Abdelkader, Islamic vs Conventional Microfinance Institutions: Performance analysis in MENA countries, International Journal of Business and Social Research (IJBSR), Volume -3, No.-5, May, 2013
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2021. "Bozor va unga aloqador masalalar" Nashriyot: «Hilol-Nashr» publishing house
10. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. 2016. "Qarz va unga aloqador masalalar" Publisher: HILOL NASHR
11. A.Vahobov, U. Burxanov, N. Jumayev "Xalqaro moliya munosabatlari", Toshkent moliya instituti, T: 2013,433b



12. N. X. Erjigitov "O'zbekistonda islom bankini joriy etish masalalari, [Oriental renaissance: "Innovative, educational, natural and social sciences"](#) jurnali, Vol. 2 No. 4, 2022-yil.
13. D.K. Abdurahimova, D.F. Muxitdinova "O'zbekistonda islom moliyasi, islom banklarining rivojlanishi va islomiy sug'urta asoslari", International conference on learning and teaching, Vol.1 No.8, 2022-yil.
14. F. Xudoynazarov "Islom moliyasi-muammolar va yechimlar", Iqtisodiy taraqqiyot va tahlili, Jild 1 No.8, 2023-yil.
15. Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi. 2024. "O'zbekistonda islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish istiqbollari" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozgan (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi Toshkent;
16. Tursunov Anvar Sultonovich. 2023. "Islomiy mikromoliyalashda "vaqf" xayriya jamoat fondining faoliyatini rivojlantirish yo'llari" Iqtisodiyot fanlari doktori darajasini olish uchun yozgan (Doctor of Science) dissertatsiyasi Toshkent;
17. <https://www.worldvision.org>
18. <http://worldbank.org/table/2.1>
19. <https://www.isdb.org/>
20. <https://www.itfc-idb.org>